



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyul*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 689 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 542 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi

15 147,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,5 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 584,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 138,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 562,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 355,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	15 147,4	108,5
shaharlar		
Farg'ona	2 422,6	109,8
Qo'qon	2 233,6	109,6
Quvasoy	282,8	107,8
Marg'ilon	1 960,6	109,4
tumanlar		
Oltiariq	611,6	107,9
Qo'shtepa	300,3	106,8
Bag'dod	428,3	107,3
Buvayda	913,5	107,0
Beshariq	565,8	107,8
Quva	714,8	107,4
Uchko'prik	1 966,3	108,9
Rishton	376,4	107,6
So'x	461,5	105,1
Toshloq	470,4	107,1
O'zbekiston	304,3	107,3
Farg'ona	415,2	106,9
Dang'ara	357,2	107,6
Furqat	155,6	106,6
Yozyovon	206,9	107,1


2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**109,8 %**), Qo'qon (**109,6**) va Marg'ilon (**109,4**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-iyul)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda) (2023- yil ,2024-yil yanvar-iyul oylari)



2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **108,5 %** ni tashkil qildi.



Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'm
Farg'ona sh	2 422,6
Qo'qon sh.	2 233,6
Uchko'prik	1 966,3
Marg'ilon sh	1 960,6
Buvayda	913,5
Quva	714,8
Oltiariq	611,6
Beshariq	565,8
Toshloq	470,4
So'x	461,5
Bag'dod	428,3
Farg'ona	415,2
Rishton	376,4
Dang'ara	357,2
O'zbekiston	304,3
Qo'shtepa	300,3
Quvasoy sh	282,8
Yozyovon	206,9
Furqat	155,6

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 16,0 % bilan 2 422,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 155,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,


13 562,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 5,8% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 38,8 % ga o'sdi va 1 584,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining


10,5 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,3 %), Toshloq (98,9 %) va Quvasoy (98,7 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (40,3 %), Dang'ara (14,7 %), tumanlarida kuzatildi.

10,5 %

89,5 %





Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-iyul oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

3 712,5 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 106,2 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (7 493,2 ming. so'm), Qo'qon (7 214,5 ming. so'm) va Marg'ilon (7 703,6 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyul), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	1 355,4	118,8
shaharlar		
Farg'ona	178,8	141,5
Qo'qon	123,6	96,6
Quvasoy	29,8	103,4
Marg'ilon	138,3	102,7
tumanlar		
Oltiariq	33,9	115,4
Qo'shtepa	41,9	71,8
Bag'dod	113,5	315,7
Buvayda	160,4	107,2
Beshariq	159,5	121,1
Quva	109,6	133,3
Uchko'prik	39,0	104,6
Rishton	78,5	125,9
So'x	25,8	147,6
Toshloq	25,3	104,9
O'zbekiston	31,4	131,4
Farg'ona	14,5	63,7
Dang'ara	5,7	96,8
Furqat	1,1	74,1
Yozyovon	44,8	109,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyul)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 355,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 118,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 870,7 mlrd. so'mni (127,3%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 484,7 mlrd so'mni tashkil etdi (106,0 %).













2024-yilning yanvar-iyul oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 870,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (326,5 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 326,5 mlrd. so'm  37,5 %	Non va non mahsulotlari 76,1 mlrd. so'm  8,7 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 148,4 mlrd. so'm  17,0 %
Tovuq go'shti 37,8 mlrd. so'm  4,3 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 55,8 mlrd. so'm  6,4 %	Tuxum 50,6 mlrd. so'm  5,8 %
Ziravorlar 29,9 mlrd. so'm  3,4 %	Sut va sut mahsulotlari 25,1 mlrd. so'm  2,9 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 19,7 mlrd. so'm  2,3 %
Tuzlamalar 19,8 mlrd. so'm  2,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 14,3 mlrd. so'm  1,6%	Nooziq-ovqat tovarlar 66,7 mlrd. so'm 7,8 %

2024- yilning yanvar-iyul oyida, Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 484,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 377,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 99,5 mlrd. so'mni, otlar – 5,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>206,9 mlrd. so'm</p>  <p>42,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>95,0 mlrd. so'm</p>  <p>19,6 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>75,2 mlrd. so'm</p>  <p>15,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>97,5 mlrd. so'm</p>  <p>20,1 %</p>	<p>Otlar</p> <p>5,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 963 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 961 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	396,3	107,0
shaharlar		
Farg'ona	150,5	114,1
Qo'qon	33,0	115,8
Quvasoy	7,9	110,7
Marg'ilon	71,3	114,2
tumanlar		
Oltiariq	11,8	107,2
Qo'shtepa	8,1	101,6
Bag'dod	6,2	90,3
Buvayda	6,3	106,0
Beshariq	10,9	107,1
Quva	11,2	85,8
Uchko'prik	11,5	93,1
Rishton	11,3	95,1
So'x	7,9	80,6
Toshloq	8,8	82,0
O'zbekiston	6,0	95,2
Farg'ona	9,4	89,4
Dang'ara	8,4	97,1
Furqat	8,9	106,9
Yozyovon	6,9	103,9

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 396,3 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Farg'ona viloyati	3 039,3	100,0
Shaharlar		
Farg'ona	940,8	31,0
Qo'qon	1323,6	43,5
Quvasoy	9,4	0,3
Marg'ilon	211,5	7,0
Tumanlar		
Oltiariq	21,6	0,7
Qo'shtepa	2,8	0,1
Bag'dod	4,9	0,2
Buvayda	12,2	0,4
Beshariq	3,1	0,1
Quva	9,6	0,3
Uchko'prik	72,2	2,4
Rishton	4,7	0,2
So'x	25,1	0,8
Toshloq	50,0	1,6
O'zbekiston	10,0	0,3
Farg'ona	3,1	0,1
Dang'ara	135,5	4,5
Furqat	14,6	0,5
Yozyovon	184,5	6,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (1 323,6 mlrd. so'm), Farg'ona (940,8 mlrd. so'm) va Marg'ilon (211,5 mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-iyul oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 3 039,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 18,9 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 103,0 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati – 103,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 936,3 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 2,7 m ko‘paydi) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 006,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining 9 528,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 276 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 251 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t (60,0 m.), Rishton (5,3 m.) va Bag'dod (5,0 m.) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Farg'ona viloyati	10 006,8	108,0
Shaharlar		
Farg'ona	2162,8	109,4
Qo'qon	1982,3	102,6
Quvasoy	341,8	107,9
Marg'ilon	2406,5	106,9
Tumanlar		
Oltiariq	176,3	91,5
Qo'shtepa	80,4	99,0
Bag'dod	71,3	104,1
Buvayda	304,1	106,1
Beshariq	126,1	104,7
Quva	53,8	108,2
Uchko'prik	835,4	163,6
Rishton	43,2	112,7
So'x	7,4	60,3
Toshloq	689,0	97,8
O'zbekiston	139,1	96,1
Farg'ona	250,6	101,5
Dang'ara	235,1	100,8
Furqat	63,4	103,9
Yozyovon	38,3	97,4